

# JOURNAL OF NATURAL SCIENCE

**№ 2 (7) 2022** <http://natscience.jspi.uz>



<u>ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p><b>Бош муҳаррир –</b> У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p><b>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова,</b> PhD, доц.</p> <p><b>Масъул котиб-</b> Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.</li><li>2. Шилова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)</li><li>3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА</li><li>4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya</li><li>5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор</li><li>6. Абдурахмонов Э.А.–СамДУ к.ф.д., профессор</li><li>7. Насимов А.М.–СамДУ к.ф.д., профессор</li><li>8. Сманова З.А.-ЎзМУ к.ф.д., профессор</li><li>9. Тошев А.Ю.- ТТЕСИ к.ф.д, доцент</li><li>10. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д, доц</li><li>11. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.</li><li>12. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф.</li><li>13. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф</li><li>14. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц.</li><li>15. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>16. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.</li><li>17. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц</li><li>18. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.</li><li>19. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)</li><li>20. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц</li><li>21. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)</li><li>22. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>23. Муминова Н- ЖДПИ к.ф.н., доц</li><li>24. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц</li><li>25. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)</li></ol>
<p><b>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</b></p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (ҳар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

**YALPIZ (Myata perechnaya)NING DORIVOR HUSUSIYATLARI**

*Qurbanova Latofat Mamadiyorovna*

**Jizzax politexnika instituti**

*Qurbanova Lobar Mamadiyorovna*

**Zomin Abu Ali ibn Sino nomli jamoat salomatligi texnikumi**

*gmail:latofatqurbanova@gmail.com*

**Annotatsiya:** Tabobatda yalpiz preparatlari me’da-ichak og’riqlarida, qorin dam bo’lganida, ko’ngil aynab, qusish vaqtida, xoletsisit, o’t-tosh kasalligi, yuqori nafas organlarning yallig’lanish kasalliklarida, mikroblarga qarshi vosita sifatida qo’llanilish usullari yoritilgan.

**Kalit so’z:** antiseptik, mentol, dipeptid, mentofuran, sirka va valerian kislota, karotin, urosolat va oleonat kislotalar, flavonoidlar.

**Annotation:** In medicine, the use of mint as an antimicrobial agent in gastrointestinal pain, abdominal pain, nausea, vomiting, cholecystitis, gallstones, inflammatory diseases of the upper respiratory tract methods are described.

**Keywords:** antiseptic, menthol, dipeptide, mentofuran, acetic and valeric acid, carotene, urosolate and oleonic acid, flavonoids.



Yalpiz dorivor o’simliklar turkumiga kirib, bo’yi - 30 sm dan 100 sm ga yetadigan ko’p yillik o’tsimon o’simlik. O’ziga xos o’tkir hidi bor, barglari chaynab ko’rilganida og’izni sovutib qo’ygandek bo’lib tuyuladi. Ildizpoyasi sershox, yer tagida yon tomonga qarab ketgan shoxlar chiqaradi. Ildizlari ingichka, popuk ildiz, ildizpoyasining bo’g’imlaridan chiqadi.

Poyalari eng tagidan boshlab kuchli shoxlanadi, yalang’och yoki siyrak kalta tukli bo’ladi. Barglari kalta bandli, cho’zinchoq-tuxumsimon shaklda, chetlari tishli, uzunligi 8 sm va eni 2 sm gacha boradi. Gullari pushti yoki och binafsha rangda, mayda-mayda bo’lib, to’pgullar hosil qiladi. Mevalari -to’rt qo’shaloq yong’oqcha. Iyun-avgustda gullaydi, sentyabr-oktyabrda mevalari yetiladi.

Geografik tarqalishiga keladigan bo’lsak yovvoyi holda yalpizning har xil turlari uchraydi, shulardan dala yalpiz bilan osiyo yalpizi O’rta Osiyodagi hamma respublikalarda keng tarqalgan. Zominda yalpiz ariq bo’ylarida ko’p uchraydi. Yalpizning ishlatiladigan organlari barglari va to’pgullari hisoblanadi.

Kimyoviy tarkibi jihatidan yalpiz barglarida anchagina efir, moylari, jumladan mentol, shuningdek dipeptid, fellandren, dineol, pulegon, mentofuran, mentol bilan sirka va valerianat kislota efirlari, karotin, gesperidin, betain, urosolat va oleonat

kislotalar bor. Barglaridan flavonoidlar ham topilgan. Osiyo yalpizida kamroq miqdorda bo`ladigan efir moylaridan tashqari oshlovchi moddalar, vitamin C, katexinlar ham topilgan. vvoyi yalpiz barglarida mentol deyarli bo`lmaydi.

Xalq tabobatida yuqori nafas yo`llarining o`tkir va surunkali kasalliklarida ko`p ishlatiladi. Galen preparatlari tinchlantiruvchi, o`t va siydik haydovchi, yallig`lanishga qarshi, og`riq qoldiradigan, antiseptik, terlatadigan, yel haydaydigan, ich surishini to`xtatadigan xossalarga ega.

Ibn Sino fikriga qaraganda, bosh og`rig`i, ko`ngil aynashi va qayt qilish vaqtida, hiqichoq tutganda, sariq kasalligi, yurak va hazm organlari ishi buzilganida yalpiz naf beradi. Yalpiz urug`i issiqlik bo`lib, tananing ichkarisidagi shiralarni tortib oladi va shu tariqa odamni terlatadi. Yalpiz urug`ini mayga solib qaynatib yoki anjir bilan qo`shib ichilsa, balg`am ancha yumshaydi, lat yegan joylarga bog`lam qilib qo`yilsa, qontalashlarni yo`qotadi. Odam eti uvishib, qaltiraganida, uni chayon chaqib olganida, muskullari lat yeganida yalpiz qaynatmasi ichish buyuriladi.

Undan vanna qilish uchun ham foydalaniladi. Zamonaviy tabobatda yalpiz preparatlari me`da-ichak og`riqlarida, qorin dam bo`lganida, ko`ngil aynab, qusish vaqtida, xoletsisit, o`t-tosh kasalligi va gepatitlarda qo`llaniladi. Yuqori nafas organlarning yallig`lanish kasalliklari (laringit, traxeit, bronxit)da ham ular ko`p ishlatiladi, mentolning spirtidagi 2% li eritmasi yoki moydagi 10% li emulsiyasi esa migren, nevrалgiyalarda badanga surtiladi. Mentol ichilganida reflektor yo`li bilan yurak toj tomirlarini kengaytiradi (validol, korvalol, valokordin tarkibida mentol bor).

Mentol- yo`talga qarshi tabletkalar (pektusin) tarkibiga ham kiradi. Yalpiz preparatlari kapillyarlarda qon aylanishi va ichak harakatlarini, hazm bezlari ishini kuchaytiradi, o`t va siydik ajralishini ko`paytiradi. Yalpiz barglarida mentol bo`lganligidan, u mikroblarga qarshi ham ta`sir ko`rsatadi.

Yalpiz preparatlari kapillyarlarda qon aylanishi va ichak harakatlarini, hazm bezlari ishini kuchaytiradi, o`t va siydik ajralishini ko`paytiradi. Yalpiz barglarida mentol bo`lganligidan, u mikroblarga qarshi ham ta`sir ko`rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Nabiyev M. Muxtarov M. M. Turkona davo va soda muolajalar. Ibn Sino Toshkent. 2003.
2. Hamidjon Zohidov “Shifo xazinasi” I.II.III tom Toshken, Yangi asr avlodi, 2004.
3. Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" 2-kitob. Toshkent 1992 yil.
4. Madraxhimov A.S. Ibn Sino shifobaxsh o`simliklar haqida "Mehnat", Toshkent 1990 y.
5. Qurbanova L.M., Qurbanova L.M. Achchiq toron (Herba poligoni hydropiperis) giyohining tabobatdagi ahamiyati. Zamonaviy taraqqiyotda ilm-fan va madaniyatning o`rni. [www.academic.uz](http://www.academic.uz). 20.02.2022 14-son. 112-112 b.

6. Qurbanova L.M., Qurbanova L.M. Dalachoy (hypyericum pyerforatu) dorivor giyohining xalq tabobatida qo'llanilishi. Zamonaviy taraqqiyotda ilm-fan va madaniyatning o'rni. [www.academic.uz](http://www.academic.uz). 20.02.2022 14-son. 115-117 b.

7.L.M.Qurbanova, D.N.Qurbonova. //Zomin shifobaxsh o'simliklarining hususiyatlari. “Journal of Natural Sciences” №3 2021 y.154-157 b. <http://natscience.jspi.uz>